



SOIL RECLAMATION CONDITION OF JIZZAKH REGION AND FACTORS AFFECTING IT

Gulbakhor M. Kholdorova

senior lecturer, Ph.D

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

Gulkhayo K. Saparova

Master's student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Jizzakh, soil, meloration, salinity, irrigated land, field.

Abstract: In this article, the topic of soil reclamation of Jizzakh region and the factors affecting it will be analyzed and discussed.

Received: 01.10.23

Accepted: 03.10.23

Published: 05.10.23

JIZZAX VILOYATINING TUPROQ MELIORATIV HOLATI VA UNGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Gulbahor Mixliboyevna Xoldorova

katta o'qituvchi, PhD

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

Gulhayo Keldiyor qizi Saparova

Magistratura talabasi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jizzax, tuproq, meloratsiya, sho'rlanish, sug'oriladigan yerlar, dala.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyatining tuproq meliorativ holati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar mavzusi tahlil va muhakama qilingan.

СОСТОЯНИЕ МЕЛИОРАЦИИ ПОЧВ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕГО

Гулбахор М. Холдорова

старший преподаватель, PhD

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

Гулхайо К. Сапарова

студент магистратуры

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джизак, почва, мелорация, засоление, орошаемые земли, поле.

Аннотация: В данной статье будет проанализирована и обсуждена тема мелиорации почв Джизакской области и влияющие на нее факторы.

KIRISH

Hozirgi kunda jahon hamjamiyatining umumbashariy muammolardan biri ekologik havfsizlikdir. Chunki insonning tabiatga bo'lgan ta'siri tobora ortib bormoqda. Fan-texnika rivojlanib borgan sari insonning tabiiy muhitga ta'siri ortib boradi. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli ne'matlar, tabiiy boyliklar va yer resurslardan foydalanadi. Shuningdek, tuproq meliorativ holatini yaxshilash, kompleks imkoniyatlarini aniqlash hamda tuproq unumdorligi va samaradorligiga alohida e'tibor berilmoqda. Tuproqning meliorativ holati bo'yicha ilmiy izlanishlarning asosiy qismi tabiiy geografik okrug miqyosida o'rganilgan bo'lib, nazariy jihatdan Jizzax viloyati tuproqlari meliorativ holatining o'ziga xos xususiyatlari to'laligicha qamrab olinmagan. Shu jihatdan viloyat tuproqlarining meliorativ holati, muhofaza qilish masalalari, tuproqning yuvilishi, sho'rlanishi va tuproq qatlamini muttasil boyitib borish muammolarini hal qilish dolzarb masalalardan biri deb hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Jizzax viloyati qadimdan sug'oriladigan va sug'orma dehqonchilik rivojlangan hudud hisoblanadi. Lekin geografik joylashuviga ko'ra o'ta murakkab tuproq meliorativ holati bilan ajralib turadi. Hududning asosiy qismi sug'orma bo'z o'tloq tuproqlar bilan qoplangan va ularning qatlamlarida turli miqdorda tuzlar to'plangan.

Jizzax viloyatidagi 275,7 ming gektar sug'oriladigan ekin maydonlari turli daraja va ko'rinishdagi gidromeliorativ va sug'orish tizimlari bilan qamrab olingan 2 mingdan ziyod nazorat quduqlari mavjud bo'lib, ulardan olingan ma'lumotlar yer osti suvlari sathini hamda gurunt suvlari va tuproqlardagi sho'rlanish yo'nalishlari va intensivlik darajasini ko'rsatib turadi. Bulardan tashqari, Jizzax viloyatida 15796 km uzunlikdagi ochiq va yopiq zovurlar faoliyat ko'rsatib, yer osti sizot va zahkash suvlarni viloyatlar hududidan tashqariga chiqarib yuborishga xizmat qiladi.

Yer resurslaridan foydalanish borasida sug'orma dehqonchilikning jadallashuvi oqibatida, uning sifat o'zgarishi kuzatilmoqda. Qishloq xo'jaligiga noqulay ta'sir ko'rsatayotgan qayta sho'rlanish, zax bosishi, eroziya va boshqa jarayonlar ta'sirida bo'lgan yerlar maydoni ham yildan yilga ortib bormoqda. Jizzax viloyatining sug'orma dehqonchilik hududlarida vujudga kelgan ko'pgina salbiy jarayonlar yerlarni o'zlashtirish davrida, tabiiy geografik sharoit yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi va uzoq yillar davomida ekin maydonlarining katta qismida paxta yetishtirilganligi, mineral o'g'itlar va zaharli kimyoviy moddalardan ortiqcha foydalanilganligi, sug'orish qoidalariga rioya qilinmaganligi, kollektor-zovur tarmoqlarining talab va ehtiyoj darajasidan kamligi, borlari ham talab darajasida ishlamasligi kabi omillar bilan bog'liq. Sug'oriladigan yerlarning mahsuldorligini oshirish, kechayotgan va vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy va tabiiy jarayonlarni bartaraf qilish uchun majmuali geografik hamda ilmiy jihatdan asoslangan tadqiqot ishlari o'tkazish zaruratini yuzaga keltiradi.

Sug'oriladigan yerlarda vujudga keladigan tuproq-meliorativ sharoiti asosan tabiiy geografik omillarga bog'liq. Ular orasida relyef va suv oqimlari muhim ahamiyat kasb etganligi uchun, tabiiy omillarni tizimli usul nazariyasi asosida o'rganish muhimdir. Hozirgi vaqtda grunt suvlari sathining ko'tarilishi sug'oriladigan yerlarda zich holda zovur tarmoqlarining qurilishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, sizot suvlarining bug'lanishi natijasida tuproqda tuz to'planish jarayoni kuzatilmoqda. Bu hol majmuali meliorativ tadbirlarni o'z vaqtida sifatli qilib amalga oshirishni talab etadi. Ammo bu muammo hozircha to'la-to'kis o'z yechimini topmagan, ularning hududiy jihatlarini o'rganish tabiiy shu jumladan meliorativ geografiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Jizzax viloyatining meliorativ sharoitini yaxshilashga yo'naltirilgan chora tadbirlarini ishlab chiqish uchun tuproq meliorativ holatini o'rganish talab etiladi. Bu borada umumiy ilmiy va maxsus geografik yondoshuvni qo'llash lozim. Tekislik bilan yon bag'irlari va turli relyef shakillari hamda ularning past balandlik hususiyatlari, melioratsiyaga ta'sir etuvchi omillarning majmuasini bir-biriga solishtirib bo'lmaydi. Shularni e'tiborga olib har bir omillarni melioratsiya nuqtai nazardan yoritib berish amaliy ahamiyat kasb etadi. Tabiat omillarini majmuali baholash bilan uning ayrim hususiyatlarini ma'lum maqsadlarda baholash o'rtasida farq mavjud. Ayrim omillarni baholash ancha oson kechadi. U miqdor va sifat ko'rsatgichlariga asoslanadi. Viloyat tabiiy komplekslarini melioratsiya maqsadida o'rganish jarayoni ko'plab tabiiy omillarni jalb etishni talab etadi. Tabiiy komplekslarni meliorativ jihatdan baholashda relyef va iqlimiy sharoitlar, yer osti va yer usti suvlari, tuproq va o'simlik qoplami, tabiiy jarayonlar va xodisalar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgani uchun ularni tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda shoʻrlangan yerlarni sogʻlomlashtirish, tuproq unumdorligi va ekinlar hosilini oshirish uchun melioratsiyaning nazariy va amaliy jabhalaridagi strategik rejalarida keskin oʻzgarishlar qilish davr talabi hisoblanadi, jumladan:

- dala tadqiqot natijalari, ilmiy adabiyotlar, mavzuli kartalar, sohaga oid vazirliklar, qoʻmitalar hamda ilmiy tekshirish institutlari maʼlumotlari asosida tuproq meliorativ holatini belgilovchi relyef shakllarini, yer usti va yer osti suvlarini hamda tuproq tuzlarining sifat va miqdorlarini tahlil qilish va kartalashtirish;
- viloyat hududida mavjud tuproq meliorativ holatini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish;
- tuproq meliorativ holatini oʻzgarish davrlarini aniqlash va ularga nisbatan hozirgi yer osti va yer usti suvlarida, tuproqlarida sifat hamda miqdor koʻrsatgich asosida tuzlarini oʻzgarish holatini optimallashtirish;
- sugʻoriladigan yerlarda yer osti suv balansini halokatli buzilishini va gurunt suvlarining keskin koʻtarilishining oldini olish uchun sugʻorish tartibotlarini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish;
- melioratsiya muammolarini muvaffaqiyatli hal etish uchun har bir tuman va xoʻjaliklarda sugʻoriladigan ekin maydonlari har yili muntazam koʻrikdan oʻtkazilishi va kuzatishlar olib borishni talab etadi;

XULOSA

Viloyat hududida ogʻir mellioratsiyalanuvchi hamda unumdorligi past ustki qatlamida 40-60 % gacha gips boʻlgan tuproqlarda yerlarni chuqur haydash, organik oʻgʻitlar solib, shoʻr yuvish ishlarini sifatli oʻtkazish yaxshi samaralar beradi. Tuproqlarni unumdorligini saqlab qolish uchun almashlab ekish tizimlarini yoʻlga qoʻyish zarur. Bundan tashqari oʻgʻitlardan toʻgʻri foydalanish, tabaqalashtirilgan ishlov berish zarur. Zaruriyat tugʻilganda kimyoviy melioratsiya tadbirlarini oʻtkazish yaxshi samara beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Алибеков Л.А., Нишонов С.А. «Природные условия и ресурсы Джиззакской области». Ташкент. «Узбекистан». 1978 г.
2. Abdullayev H.A., Abdurahmonov A. Shoʻrlangan tuproqlar va ularning melioratsiyasi. T., 1989.
3. Axmedov A.U., Abdullayev S.A., Parpiyev G.T. Tuproqlarning Meliorativ holati. “Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining sugʻoriladigan tuproqlari” jamoa monografiyasi. – Toshkent.: OʻzRFA “Fan” nashr., 2005. V-bob. -122-157b.
4. Yoʻldoshev Gʻ., Karimova S., Gʻoziyev M. Shoʻrlangan tuproqlar melioratsiyasi. T., 1998